

-So`z va ularni izohlashda qiyinchiliklarga duch kelmadingizmi?

“BBB” metodi orqali bugungi darsga xulos qilinadi.?

Darsda faol qatnashgan o`quvchilar baholab, rag`batlantiriladi.

VI.Uyga vazifa berish.

She'rni yod oling. O`zingiz yoqtirgan tabiat manzarasi rasmini chizing.

10-mavzu: "Karim polvon “ hikoya (Abdulla Saidov)

Darsning maqsadi:

- a)ta'limiy:** o`quvchilarni hikoya matni bilan tanishtirish, mazmunini tushuntirish, ifodali o`qishni o`rgatish.
- b)tarbiyaviy:** o`quvchilarga milliy marosimlar va o`yinlar haqida, ularning ahamiyati haqida o`rgatish, milliy an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash.
- c)rivojlantiruvchi:** o`quvchilarning ifodali o`qish ko`nikma va malakalarini , mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

Dars turi: Yangi tushuncha,bilimlarni shakllantiruvchi

Dars metodi: Suhbat,tushuntirish metodi,savol-javob, ta'limiy o`yinlar.

Dars jahozi: Mavzuga oid rangli rasmlar, tarqatma materiallar

Darsning borishi:

I.Tashkiliy qism.

Salomlashish. O`quvchilarni darsga hozirlash. Ma'naviyat daqiqasi o'tkaziladi.

II.Uy vazifasini so'rash va o'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa – "Tog`lar" she'rini o`quvchilar yoddan aytib beradilar.

"Klaster" usuli